



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



KORXONALAR IQTISODIY SALOHIIYATINI BAHOLASH USULLARI TAHLILI

Xatamov Ochildi Qurbonovich, Xaitov Shuxrat O'ktam o'g'li

АНАЛИЗ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ

Хатамов Очилди Курбанович, Хаитов Шухрат Уктам угли

ANALYSIS OF METHODS FOR ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ENTERPRISES

Khatamov Ochildi Kurbanovich, Khaitov Shukhrat Uktam ugli

Received: July 11, 2026 Revised: July 16, 2026 Accepted: July 19, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya: Maqolada korxona iqtisodiy salohiyati turli komponentlarni o'z ichiga olgan murakkab kategoriya sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek uni baholash usullari tahlil etilib guruhlashtirilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, korxona, iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish, resurslar, moliyaviy salohiyat, usullar.

Аннотация: В статье экономический потенциал предприятия рассматривается как сложная категория, включающая в себя различные компоненты. Также проанализированы методы его оценки и разделены на группы.

Ключевые слова: промышленность, предприятие, экономический потенциал, производство, ресурсы, финансовый потенциал, методы.

Abstract: The article examines the economic potential of an enterprise as a complex category that includes various components. Methods for its assessment are also analyzed and divided into groups.

Keywords: industry, enterprise, economic potential, production, resources, financial potential, methods.

■ KIRISH

Mamlakatimizda barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilgan holda yangi o'sish nuqtalarini aniqlash hamda mavjud iqtisodiy salohiyatdan etarlicha foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan e'tiborga molik ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ya'ni, sanoat ishlab chiqarish korxonalari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mahalliy va xorijiy bozorlarga xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining quyidan yuqoriga qarab o'sishini qo'llab-quvvatlash, aholini sanoat ishlab chiqarish korxonalariga band qilish va ularning daromadlarini oshirish bilan bog'liq harakatlar muntazam amalga oshirilmoqda. Albatta, tarmoqda amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar natijasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "kelgusi besh yilda sanoatda mehnat unumdorligi hozirgi 16,5 ming dollardan 30 ming dollarga etkaziladi; 1 ming dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga ketadigan energiya sarfi 1,5 barobar kamaytiriladi"[1].

Korxona iqtisodiy salohiyati kapital, daromad va investitsiyalar kabi moliyaviy resurslarni, shuningdek, binolar, uskunalar, xom ashyo va boshqalar kabi moddiy resurslarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xodimlarning malakasi va tajribasi kabi inson resurslari va ma'lumotlar bazalari, axborot tizimlari va texnologiyalarni o'z ichiga olgan axborot resurslari muhim rol o'ynaydi. Kreditorlar, investorlar, hukumat, aktsiyadorlar, menejerlar, ta'minotchilar va sug'urta kompaniyalari korxona iqtisodiy salohiyatini baholashdan manfaatdordir.

■ ADAIYOTLAR TAHLILI

Mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilganda, sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati tushunchasiga katta ahamiyat berilgan va iqtisodiy salohiyatning barqarorlashtirilishi muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Shuning uchun, bugungi raqobat kuchayib borayotgan zamonda, har bir davlat o'zining korxonalari iqtisodiy salohiyatini aniqlay olish darajasida mukammal tizimga ega bo'lishi zarur.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sanoat ishlab chiqarish korxonalarini faqat innovatsion texnika-texnologilar bilan ta'minlashning o'zi etarli emas. Ya'ni



maqsadli puxta ishlab chiqilgan statistik-ekonometrik o'rganish dasturi asosida

qilingan qarorlar ham zarur hisoblanadi. Shuning uchun, "salohiyat", "iqtisodiy salohiyat" tushunchalari va ularni baholab beruvchi ko'rsatkichlar tizimini yaxshiroq tushunib olish uchun iqtisodchi olimlar talqinlarini tahlil qilish lozim.

Korxonalar darajasida "salohiyat" tushunchasiga G.B.Kleyner, B.I.Tambovsev va R.M.Kachalovlar tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan[2], ya'ni ularning fikricha, "muayyan bir korxona salohiyati tashqi ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi resurslari, holati va harakatini tavsiflovchi tarkibiy qismlardan tashkil topadi". Fikrimizcha, ushbu talqin korxonalar iqtisodiy salohiyati mohiyatini ilmiy

va nazariy jihatdan asoslay oladi.

Iqtisodchi olim M.I.Buxalkovning fikricha, "har qanday korxonaning iqtisodiy salohiyati rejalashtirilgan ishlar, xizmatlarni ishlab chiqarish uchun tashkilot ixtiyorida bo'lgan resurslar tarkibi: mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqalarni o'zida aks ettiradi[3]". Fikrimizcha, M.I.Buxalkov tomonidan berilgan tushuncha qiziqarli bo'lsada, u tor ma'noda talqin etilgan.

B.C.Spirinning yondashuviga qaraganda, "iqtisodiy salohiyat" mavjud va foydalanilmagan zaxiralarni o'zida jamlagan resurslar majmui orqali aniqlanadi"[4], desa A.S. Bekasova va A.A. Izotkov iqtisodiy salohiyatni "biznes jarayonlarini amalga oshirish orqali manfaatdor tomonlar uchun natijalar yaratish uchun korxonaning resurslari va vakolatlari tizimi"[5], deb hisoblashadi.

Mualliflar O.A. Minaeva va G.S. Merzlikina iqtisodiy salohiyatni "ma'lum bir sohada, mintaqada yoki hududda ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha mavjud resurslar, imkoniyatlar va ishlab chiqarish kuchlarining yig'indisi; biror narsaning zaxirasi; yashirin qobiliyatlar, ma'lum sharoitlarda o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatning kuchli tomonlari"[6], degan fikrni ilgari suradi.

Yana bir guruh olimlar fikricha, "korxonaning iqtisodiy salohiyati - bu maqsadli, iqtisodiy jihatdan samarali natijalarga erishish maqsadida iqtisodiy sub'ekt tomonidan yaratilgan iqtisodiy resurslarning o'ziga xos to'plami" [7]dir.

B.A.Rayzberg fikricha esa, "iqtisodiy salohiyat maksimal darajada foyda olish uchun korxonaning jami mavjud cheklangan resurslaridan samarali foydalanishni izohlaydi hamda ishlab chiqarish va iqtisodiy tizim salohiyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi"[8].

I.C.Sosnenko "iqtisodiy salohiyat"ni obyekt sifatida tadqiq etishni ikkita yo'nalishga ajratadi. Bir tomondan, iqtisodiy salohiyatga xo'jalik yuritish subyektlarining umumiy resurslari, ikkinchi tomondan, jamiyat talabini qondirish uchun mavjud resurslarni o'zlashtirish va qayta ishlash qobiliyati sifatida qaraladi"[9].

Mahalliy olimlar asarlarida ham iqtisodiy salohiyatga quyidagicha ta'rif beriladi: "iqtisodiy salohiyat" – bu muayyan sohada maqsadlarga erishish, belgilangan vazifalarni echish uchun tashkilot

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

tomonidan foydalanish mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralardir"[10-12]. Bundan tashqari, "korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda, unda sodir etilgan iqtisodiy jarayonni to'liq ta'minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy aktivlar tushuniladi"[13].

Mahalliy iqtisodchi olim I.I.Jalolov fikricha, "korxona bir me'yorda ishlayotgan bo'lsada, yanada rivojlanishi uchun bir nechta imkoniyatlarga ega bo'lsa va ulardan foydalanganda o'sish tendensiyasiga erishish mumkin bo'lsa, bunday imkoniyatlar majmuiga "salohiyat" deyiladi[14]. Bu salohiyat, albatta, korxonalarda yashiringan va yashirinmagan holatlarda sodir bo'lishi mumkin. Agar korxona shu imkoniyatlarni aniqlay olsa va kelajakda undan foydalanishni rejalashtirsa, bu salohiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda korxonalar, shu jumladan sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilishga oid amaldagi usul va uslublarni tanqidiy tahlil qilish orqali ularni zamonaviy yondashuvlar, rivojlanishning yangi yo'nalishlari talablaridan kelib chiqib takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, indeksli tahlil, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini aniqlashda resurslardan tashqari, korxona rahbarlarining mavjud resurslarni samarali boshqarish qobiliyati, mavjud resurslar balanslarining ratsionalligi, ushbu resurslarni ko'paytirish salohiyati va mahsulotlar hamda resurslar uchun bozor konyunkturasining korxona uchun qulaylik darajasi kabi omillarni ham hisobga olish kerak.

Odatda, sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholash bugungi kunda eng keng qo'llaniladigan moliyaviy va iqtisodiy tahlil usullariga asoslanadi. Muayyan baholash usulini tanlash quyidagi mezonlarga javob berishi kerak: natijalarni talqin qilish, zaif tomonlarini aniqlash, ko'rsatkichlar xilma-xilligi, tahlilchilar soni, vaqt sarfi, moliyaviy xarajatlar, ob'ektivlik darajasi, foydalanish qulayligi, qo'llanilish tezligi, keng qo'llanilishi, dasturiy ta'minot mavjudligi va natijalar ishonchiligi[15].

Iqtisodiy salohiyatni korxonaning kelajakdagi rivojlanish arxitekturasini shakllantiruvchi turli komponentlarni o'z ichiga olgan murakkab, ko'p qirrali kategoriya sifatida ko'rib chiqish mumkin(1-rasm).

Bugungi kunda mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholash uslubiyati to'liq ishlab chiqilmagan. Shu nuqtayi nazardan, korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholash bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar va usullarni tadqiq etish ilmiy hamda amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadi. Jumladan, V.V.Vinogradova va T.V. Ponomarenkoning fikricha, kompaniya iqtisodiy salohiyatini baholash Balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi uslubiyatiga (BSC) asoslanadi hamda asosiy va strategik maqsadlarga erishishni ta'minlovchi moliyaviy hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlarni o'zida



aks ettiradi. Ushbu uslubiyat quyidagicha ifodalanadi”[16]:

$$UIS = 0,46S_m + 0,407S_{it} + 0,449S_k + 0,4S_{is} + 0,4S_{tic} + 0,445S_{tma}$$

bu erda:

UIS – umumiy iqtisodiy salohiyat;

S_m – moliyaviy salohiyat;

S_{it} – iste'molchilar talabi salohiyati;

S_k – kadrlar salohiyati;


S_{is} – ichki samaradorlik salohiyati;

S_{tic} – takror ishlab chiqarish salohiyati;

S_{tma} – tashqi muhit bilan aloqalar salohiyati.

Iqtisodchi olimlar I.I.Yunusov va A.V.Chervolar[17] korxona iqtisodiy salohiyat($KIS_{t(i)}$)ni amalga oshirilmagan($KIS_{t(i)1}$) hamda amalga oshirilgan salohiyat($KIS_{t(i)2}$)lar yig'indisi sifatida talqin qilishadi. Har qanday korxona rahbari quyidagi shartlarga amal qilishga intilishi lozim: $KIS_{t(i)1} \rightarrow \min$; $KIS_{t(i)2} \rightarrow \max$. Shuningdek, ular iqtisodiy salohiyatning oqilona qiymati KIS_{oqil} ko'rsatkichini ham taklif etishadi.

$$KIS_{oqil} = KIS \text{ ning o'sish zahirasi} + KIS_{t(i)}$$



1-rasm. Korxona iqtisodiy salohiyati komponentalari¹⁴

¹⁴ Mualliflar ishlanmasi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



Agar $KIS_{oqil} = KIS_{t(i)1} + KIS_{t(i)2}$ bo'lsa, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalangan hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy salohiyatdan foydalanishni diagnostika qilish uchun IPS modeli ishlab chiqilgan va u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$IPS = -0,733 + 0,44X_1 + 2,671X_2 + 0,064X_3 + 0,089X_4 + 0,018X_5$$

X_1 – qoplash koeffitsiyenti;
 X_2 – avtonomlik koeffitsiyenti;
 X_3 – mahsulot rentabelligi;
 X_4 – fond qaytimi koeffitsiyenti;
 X_5 – korxona ishlovchilari o'rtacha ish haqining belgilangan eng kam ish haqiga nisbati.

Agar $IPS > 0$ bo'lsa, korxona iqtisodiy salohiyat darajasi yuqori bo'ladi va $IPS < 0$ bo'lsa, korxona bankrot hisoblanadi.

Shu o'rinda E.B.Chekardina tomonidan taklif etilgan usul qiziqarli hisoblanadi, jumladan, bunda iqtisodiy salohiyat tarkibiga ishlab chiqarish, innovatsiya, moliya, marketing va shartnoma kabi omillar kiritilgan. Ushbu usul quyidagicha ifodalanadi[18]:

$$IS = 0,16S_{ish} + 0,24S_{inn} + 0,17S_{moliya} + 0,13S_{mark} + 0,3S_{shart}$$

Iqtisodiy salohiyat (IS) quyidagi komponentlardan iborat: ishlab chiqarish (S_{ish}), innovatsiya (S_{inn}), moliyaviy (S_{moliya}), marketing (S_{mark}) va shartnomaviy (S_{shart}). Olingan agregat ko'rsatkich ishlab chiqilgan qiymatlar shkalasi (0-15) bilan taqqoslanadi. Bu erda: 0,16; 0,24; 0,17; 0,13; 0,3 – ko'rsatkichlar salmog'i koeffitsiyentlari.

Ayrim iqtisodchi olimlar[9] tomonidan iqtisodiy salohiyat tarkibida ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatlar ajratib olinadi hamda ishlab chiqilgan shkalalar asosida moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlarni ball va ekspert baholash tizimiga asoslanadi. Shu jumladan, L.C.Sosnenko korxona iqtisodiy salohiyatini baholash asosida mulkiy salohiyat (aktiv va passiv) qiymatini baholash yotadi deb hisoblaydi. Uning fikricha, qiymat bahosi ko'rinishidagi mulkiy salohiyat bu iqtisodiy salohiyat, uni sifat jihatdan baholash esa, korxonaning moliyaviy barqarorligi holatining darajasi hisoblanadi.

O.A.Jigunova fikricha, korxona salohiyatidan samarali foydalanishni ta'riflash uchun korxonadagi salohiyat imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlash zarurdir. Korxonalarning salohiyat imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bo'yicha taklif etilgan tasniflanishi korxonalarning samarali faoliyati uchun tegishli xulosa chiqarish va tegishli choralar qabul qilish imkonini beradi[19]. Ushbu usul quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$S_{ishm} = 0,4Ish_s + 0,3M_s + 0,3E_s$$

bu erda: S_{ishm} – ishlab chiqarish – moliyaviy salohiyat;

Ish_s – ishlab chiqarish salohiyati;

M_s – moliyaviy salohiyat;

E_s – ekologik salohiyati;

0,4; 0,3; 0,3 – ko'rsatkichlar salmog'i koeffitsiyentlari.

$$Ish_s = 0,4R_{ish} + 0,2E_{av} +$$

$0,4Ish_q$

bu erda:

R_{ish} – ishlab chiqarish rentabelligi;

E_{av} – asosiy vositalar eskirishi;

Ish_q – ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi.

$$M_s = 0,2k_{ml} + 0,2k_{jl} +$$

$0,2k_{mb} + 0,2k_{mm} + 0,2k_{sqm}$

bu erda:

k_{ml} – mutloq likvidlik koeffitsiyenti;

k_{jl} – joriy likvidlik koeffitsiyenti;

k_{mb} – moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti;

k_{mm} – moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;

k_{sqm} – sotilmay qolgan mahsulot darajasi;

0,2 – ko'rsatkichlar salmog'i koeffitsiyentlari.

$$E_s = 0,2D_j + 0,6X_{aus} + 0,2X_{ishhaq}$$

bu erda:

D_j – jarimalar darajasi;

X_{aus} – asbob-uskunalar xarajatlari;

X_{ishhaq} – mehnatga haq to'lash xarajatlari.

0,2; 0,6; 0,2 – ko'rsatkichlar salmog'i koeffitsiyentlari.

A.A.Pshenichnikov esa korxona iqtisodiy salohiyatini quyidagicha hisoblashni taklif etadi[20]:

$$KIS = ICH_s + MR$$

bu erda:

ICH_s – ishlab chiqarish quvvati (asosiy fondlar) va aylanma fondlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish salohiyati; MR – moliyaviy resurslar.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan korxonalarning iqtisodiy salohiyatini baholash usuli ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda koeffitsiyentlar salmog'ini inobatga olishga e'tibor qaratilgan.

Ayrim iqtisodchi olimlar korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashga korxonaning bozor qiymatini baholash usullari asosida yondashishgan. Xususan, ushbu usullar 3 ta asosiy ko'rsatkichga asoslanadi:

-mahsulot (xizmatlar)larni sotish hajmi – vaqtli qatorlarda sotish hajmi tahlili asosida baholash;

- raqobat ulushi-bozorda hududlar kesimida vaqtini inobatga olib raqobatchilarni o'rganish, tahliliy xulosa;

- doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarin hisoblash - korxonaning iqtisodiy salohiyatiga, asosan, qaysi xarajat turlari ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatayotgani.

Amaliyotda qo'llanib kelingan korxonalar iqtisodiy salohiyatini reyting baholash usullarini ko'rib chiqsak, bu usullar ham, asosan, moliyaviy va balans natijalari asosida reytingli ko'rsatkichlar ishlab chiqishga asoslangan hamda bular quyidagilar hisoblanadi:

-korxona balansining iqtisodiy tahlili asosida ishlab chiqilgan ko'rsatkichning solishtirma tahlili va moliyaviy natijalarining vaqtli qatorlarda;

- ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar asosida reytingli baholash va ularni raqobatchilar bilan solishtirish.

Umuman aytganda, zamonaviy iqtisodiy nazariya fani korxona iqtisodiy salohiyatini baholash uchun juda keng vositalar va usullar to'plamini taklif etadi. Ammo ularni quyidagi jadvalda keltirilgan an'anaviy usullar,



ya'ni korxona bozor qiymatini baholash usullari, iqtisodiy salohiyatni baholashning kompleks reyting

usullari va uning moliyaviy ko'rsatkichlarini diagnostika qilish usullariga birlashtirish mumkin(1-jadval).

1-jadval

Korxona iqtisodiy salohiyatini baholashning an'anaviy usullari guruhlanishi¹⁵

Usul	Usul mazmuni
Korxona bozor qiymatini baholash usullari	Bu usul quyidagi 3 ta usulni o'z ichiga oladi: - foydali, bunda korxonaning iqtisodiy salohiyati undan foydalanish natijasida iqtisodiy natijalarning sof oqimi hajmiga qarab baholanadi; - bozor(qiyosiy)- korxonaning iqtisodiy salohiyatini analoglar bilan taqqoslash asosida baholash; - mulkiy (xarajatli) -korxonaning iqtisodiy salohiyatini uni shakllantirish va undan foydalanish xarajatlari miqdoriga qarab baholash.
Kompleks reyting baholash metodikasi	Metodika quyidagilarni o'z ichiga oladi: - korxona moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko'plab ko'rsatkichlar asosida korxona moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishga asoslanadi; - korxonani hisoblangan ko'rsatkichlarini eng yaxshi natijalarga ega bo'lgan shartli etalon korxona ko'rsatkichlari bilan taqqoslash asosida yakuniy reyting ballarini hisoblash amalga oshiriladi.
Korxona moliyaviy faoliyatini baholash metodikasi	Korxonaning iqtisodiy salohiyati korxonaning mulkiy salohiyati va moliyaviy holatini baholash nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy elementlarini aniqlashga yondashuvlarni tahlil qilish natijasida deyarli har qanday faoliyat turining asosiy iqtisodiy omillari mehnat (inson), moliyaviy, texnologik va moddiy-texnik resurslar ekanligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Korxonaning iqtisodiy salohiyati va uning raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratgan holda aytish mumkinki, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish bozorda raqobatbardosh ustunlikka erishishning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2025 йил 26 декабрь. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Клейнер Г.Б., Щепетова С.Е., Щербаков Г.А. Системные механизмы координации участников инновационной деятельности // ЭНСР., 2017.-№ 4 (79). 16
3. Бухалков М.И. Внутрифирменное планирование.-М.: ИНФРА-М, 2000.- С. 392.
4. Спирин В.С. Основные черты современных структурных изменений производственного потенциала предприятия // Консультант директора, 2004.-№ 15.-С. 88.
5. Бекасова, А.С. Экономический потенциал предприятия как фактор его конкурентоспособности / А.С. Бекасова, А.А. Изотенков // Экономика и эффективность организации производства. – 2021. № 33. С. 95- 97.

6. Минаева, О.А. Оценка и управление экономическим потенциалом предприятия: учебное пособие / О.А. Минаева, Г. С. Мерзликина. - Волгоград: ВолгГТУ, 2019.- 74 с

7. Теория и методология оценки экономического потенциала предприятий / Г.Г. Надворная, С.В. Климчук, М.С. Оборин, Т.Е. Гварлиани // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз.-2016.- № 6.- С. 70-90. DOI: 10.15838/esc/2016.6.48.4

8. Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами.-М.: ИНФРА-М,2008.- С.384.

9. Сосненко Л.С. Анализ экономического потенциала действующего предприятия.- М.: Экономическая литература, 2004.-С.208.

10. Абдукаримов И.Т., Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2003.-Б. 6

11. Абдуллаев Ё., Иброхимов А., Рахимов М. Иқтисодий таҳлил.-Т.:Мехнат, 2001.-Б. 159-161.

12. Пардаев М., Хасанов Б.А., Исроилов Ж.И., Холикулов А.Н. Иқтисодий таҳлил. Дарслик.-Т.: ТДИУ ва СамИСИ, 2011.-Б.138.

13. Маҳмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.-Т., 2004.-Б. 74.

14. Jalolov I.I. Sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasi Iqt. fan. d-ri.... dis.-Toshkent: TDIU, 2025.-236 b

15. Белоусова, И. В. Разработка методики оценки экономического потенциала предприятия в системе национальной экономики и ее практическое применение. // Фундаментальные исследования. – 2021. № 2. С. 7-11.

¹⁵ Mualliflar ishlanmasi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



16. Виноградова В.В., Пономаренко Т.В. Оценка экономического потенциала компании // Социально-экономические проблемы развития России и проблемы глобализации: потенциал возможного. - СПб.: Изд-во Политех. ун-та, 2007. – С. 17-20

17. Юнусов И.И., Черво А.В. Экономический потенциал строительного предприятия. //Известия КазГАСУ, 2007, №2 (8), С.95-101.

18. Чекардина Е.Б. Методические основы оценки надежности строительной организации: дис... канд. экон. наук: 08.00.05 / Чекардина Е.Б.- Тюмень,-197 с.

19. Жигунова О.А. Методология анализа и прогнозирования экономического потенциала предприятия. Дисс...д-ра экон. наук: 08.00.12. – Екатеринбург, 2010. – С. 147.

20. Пшеничников А.А. Планирование экономического потенциала предприятия // Экономист. 1992.- № 4. С. 34-43

1. Xatamov Ochildi Qurbonovich Termiz davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori / Хатамов Очилди Курбанович Профессор Термезского государственного университета, доктор экономических наук / Khatamov Ochildi Kurbanovich Professor of Termez State University, Doctor of Economics

E-mail: o.xatamov@mail.ru

ORCID: 0009-0003-9513-9987

2. Xaitov Shuxrat O'ktam o'g'li Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot mutaxassisligi 2-kurs magistri / Хайтов Шухрат Уктам угли Термезский университет экономики и сервиса Магистр 2 курса по специальности "Экономика" / Khaitov Shukhrat Uktam ugli Termez University of Economics and Service 2nd ear Master's degree in Economics

E-mail: Shifohayot@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0110-5719>

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz